

PESHKU TUMANI TURISTIK OBYEKTлари VA ZIYORATGOHLARI GEOGRAFIYASI

Mavlonov Ahmadjon Muhamadovich (g.f.n., dotsent)

Buxoro davlat pedagogika instituti

Tabiiy fanlar kafedrası mudiri

Ibotova Durдона Uzoqboy qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya:Maqola Buxoro viloyatining Peshku tumaniga bag'ishlanadi. Maqolada Peshku tuman turistik obyektlari va ziyoratgohlari haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek tumanning turistik salohiyati va imkoniyati haqida so'z boradi.

Аннотация:Статья посвящена Пешкунскому району Бухарской области. В статье представлена информация о туристических объектах и святынях Пешкунского района. Также говорится о туристическом потенциале и возможностях района.

Kalit so'zlar: Peshku tumani, masjid, Buxoro, Abu Ali ibn Sino, muzey, Afshona, Zandana matosi, Peshku shaharchasi.

Ключевые слова: Пешкунский район, мечеть, Бухара, Абу Али ибн Сина, музей, Афшона, ткань Занданы, город Пешку.

Buxoro – o'zining me'moriy obidalari, madaniy merosi bilan Markaziy Osiyo, qolaversa dunyoni lol qoldirayotgan joy. Viloyat 1938-yil 15-yanvarda tashkil topgan. Maydoni 40,22 ming kv kmni tashkil etadi. Buxoro viloyati 11 ta ma'muriy tumandan iborat bo'lib, ulardan biri Peshku tumanidir.

Peshku tumani 1950-yil 15-aprelda tashkil topgan bo'lib u Vobkent tumanidan ajralib chiqqan. Tuman markazi Yangibozor shaharchasi hisoblanadi. Tuman viloyatda o'z o'rniga ega. Peshku tumani Buxoro viloyatining kenja tumanlaridan biri sanalsada, u boy tarixga ega ko'hna qishloqlari bilan mashhur. Peshku tumani buyuk alloma, Avitsena nomi bilan tibbiyot sohasida o'chmas iz qoldirgan, Abu Ali ibn Sinoning yurti. Tuman Buxoro viloyatining shimoliy - g'arbida, Zarafshon daryosi qirg'og'idan 10-15 km yuqori qismida joylashgan. Tuman ma'lum chegaralarga ega bo'lib, shimoldan Navoiy viloyati, shimoliy - sharqdan Shofirkon tumani, shimoliy-g'arbdan Qoraqalpog'iston Respublikasi, Romitan tumani, janubdan Jondor va Romitan tumanlari, janubiy - sharqdan Vobkent tumani bilan chegaradosh. Tumanning umumiy uzunligi 75 km bo'lib, maydoni 8,72 ming kv km. Tuman hududining asosiy qismi cho'l zonasida joylashgan. Iqlimi keskin kontinental, issiq quruq, ammo cho'l hududida doimo shamol esib, shabadani hosil qiladi. Tuman hududi asosan tekislikdan iborat. Cho'l yaylovlari katta maydonni egallaydi.

Mahalliy toponomistlar fikricha tuman nomi "Peshi kuy" - "Katta yo'l ustidagi joy" ma'nosini bildiradi. Bu atamaning "Oldindagi tog' " varianti ham bor. XX asrning 30-yillarida tuman nomi Zandona va Xutfar nomi bilan mashhur bo'lgan. Muhammad Narshaxiy o'zining "Buxoro tarixi" asarida Peshku haqida ham yozib qoldirgan.

Bugungi kunda Peshku tumanida bir qator diqqatga sazovor joylar va ziyoratgohlar mavjud. Ulardan biri ulug' mutafakkir Abu Ali ibn Sino yurti - Afshona qishlog'idir. Tumanda yirik turistik markazlardan biri sanalgan Afshonada bir nechta diqqatga sazovor joylar bor. Shulardan biri Abu Ali ibn Sino muzeyidir.

Muzey 1980-yilda YUNESKO Abu Ali ibn Sino tavalludining 1000 yilligi arafasida ishga tushgan. Muzey 7 ta zal va 9 ta bo'limdan iborat. Muzey ichida inson o'zini o'sha davrga tushib qolgandek his etadi. Muzeyda Ibn Sino ishlatgan turli asboblari va boshqa uy - ro'zg'or buyumlari saqlanmoqda. Muzey oldidagi xiyobonda Abu Ali ibn Sinoning muhtasham haykali qad ko'tarib turibdi. 2022-2026- yillarda Buxoro viloyatida turizmni yanada rivojlantirish uchun turizm infratuzilmasini tashkil qilish maqsadida Peshku tumanidagi Abu Ali ibn Sino muzeyida ekspozitsion va tarixiy ashyolar sonini ko'paytirish jumladan, ibn Sino qalamiga mansub Turkiya va Buyuk Britaniya, Fransiya muzeylarida saqlanayotgan qo'lyozma va ekspozitsion nusxalarini ko'chirib olib kelish va joylashtirish

yuzasidan muzeyda ibratli ishlar amalga oshirildi. Afshona qishlog'ida buyuk alloma bobomiz merosini namoyish etish, odamlarni sog'lom turmush tarziga undash, sayyohlar oqimini ko'paytirish maqsadida yirik obyekt barpo etish ham ko'zda tutilgan.

Tumandagi ikkinchi turistik markaz Zandana qishlog'i hisoblanadi. Zandana - deyarli Rim bilan tengdosh. Hunarmandchilik va savdo markazi. O'tmishda bu hududda nihoyatda chiroyli harir matolar to'qilgan. Zandaniychi, Zandanechi - O'rta Osiyoning boy bezakli ipak matosi, u G'arbda keng tarqalgan. Qadimda mashhur to'qimachilik ishlab chiqarish markazi bo'lgan Buxoro yaqinidagi "Zandanada ishlab chiqarilgan" - degan ma'noni bildirgan. Narshaxiyning yozishicha, "Bu mato hatto Hindiston va Iroqqa ham yuborilgan. U o'ta pishiqligi, harir va go'zalligi bilan o'sha davr zodagonlari tomonidan yuqori baholangan". Bu matolar Osiyo, Yevropa, Rossiya, Kavkaz, "Buyuk ipak yo'li" orqali dunyoga tarqalgan. VI - VIII asrlarda ishlab chiqarilgan Zandaniychi mato parchalari G'arbiy Yevropaning muzeylarida hozir ham saqlanmoqda. XVII asrda Rossiyaga O'rta Osiyodan yuborilgan barcha matolar "Zenden" nomi bilan mashhur bo'lgan. Zandanada qal'a ham barpo etilgan. Afsuski, hozirgi kunda Zandana qal'asidan qoldiqlar qolgan xolos.

Peshkuda bunyodkorlik ishlari ham ko'zga ko'rinarli. Ko'plab masjid va binolar qurilib tuman ko'rkiga ko'rk qo'shmoqda. Masalan, tumanga qarashli Talisobun qishlog'ida zamonaviy talablarga javob bera oladigan masjid hozirgi kunda qad ko'tarmoqda. Qurilish ishlari hozirgi kunda davom etayotgan "Xo'jai Ro'shnoyi" masjidi juda mahobatli bo'lib, tashqi tomondan insonni o'ziga jalb qiladi. Har hafta ommaviy juma namozlarini o'qish uchun qo'shni qishloqdan ham insonlar kelishadi. Masjid yo'l yoqasida joylashgani uchun uzoqdan ham ko'rinib turadi.

Bundan tashqari tumanda bir qancha qadimiy masjidlar saqlanib qolgan. Ulardan biri Malishoyak jome masjididir. "Malishoyak" jom'e masjidi 1350-yilda taxtga o'tirgan "Malik Shoxbir" nomi bilan aloqador. "Malik Shoxbir" keyinchalik "Malishoyak" deb talaffuz qilinib ketilgan. Masjid qurilishi XVIII - XIX asrlarga borib taqaladi. Masjid 1923-1927-yillarda qaytadan qad ko'tardi. 1991-1994-yillarda hashar yo'li bilan obod go'shaga aylantirildi.

Xo'ja Peshku qishlog'i tumanning tarixiy majmualaridan biri sanaladi. Tuman nomi ham mana shu qishloq nomi bilan bog'liq. Xo'ja Peshkuda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va O'zbekiston musulmonlar idorasi tasarrufidagi jome masjidi mavjud. Masjid XV asrda qurilgan. 1999-yilda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olingan. Masjid bir vaqtning o'zida 200 nafar namozxonni sig'dira oladi. Xo'ja Peshku yodgorligi islom me'morchiligi asosida, sharqona qurilgan. U yerda joylashgan minoralar balandligi 11 metrni tashkil etadi. Bugungi kunda mazkur obidalar rekonstruksiya qilinib, turistlar oqimining ko'payishiga sabab bo'lmoqda.

Umuman olganda, Peshku tumanida bir qator diqqatga sazovor joylar va qadamjolar mavjud. Ularning ayrimlarini istiqloq yillarida qayta rekonstruksiya qilinib, turistik obyektlar sirasiga kiritildi. Bugungi kunda ularning tarixini har tomonlama o'rganish va tuman ichida yangi turistik yo'nalishlarni yaratish muhim hisoblanadi. Har bir tumanda turistik yo'nalishlarni barpo etish orqali Buxoroning "turistik halqari" ni kengaytirish va shu orqali viloyatda ichki va tashqi turizmni rivojlanishiga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Mavlonov A.M. Cho'l urbanizatsiyasi. – Buxoro, 2015. – 176 b.
2. Nazarov I.Q., Allayorov I.Sh. Buxoro geografiyasi. – Buxoro, 1994.– 67 b.
3. Nurov U.N. Buxoro viloyati iqlimi va uning resurslari. – Buxoro, 1996. – 44 b.